

**NAJMIDDIN KUBRO HAYOTI VA FAOLIYATINI O‘RGANISHNING  
AHAMIYATI****Abduragimov Muxammadiy Rustamjanovich***Yangi asr universiteti magistranti*[Abduragimovmuhammadiy38@gmail.com](mailto:Abduragimovmuhammadiy38@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Najmiddin Kubroning hayoti, ilmiy-ma'naviy merosi va uning tasavvuf ta'limotida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, mutafakkirning inson kamoloti, ma'naviy poklanish va axloqiy tarbiyaga oid qarashlari yoritib beriladi. Uning asos solgan Kubraviya tariqati va uning jamiyat ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqolada Najmiddin Kubro merosini o'rganishning bugungi kun uchun dolzarbligi va ahamiyati ochib beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Najmiddin Kubro, tasavvuf, ma'naviyat, komil inson, ilmiy meros, axloqiy tarbiya.*

**Annotatsion:** *This article examines the life, spiritual heritage, and scholarly contributions of Najmiddin Kubro, as well as his significant role in the development of Sufism. It highlights his views on human perfection, spiritual purification, and moral education. The study also analyzes the Kubrawiya order founded by him and its influence on the spiritual life of society. Furthermore, the article emphasizes the contemporary relevance and importance of studying Najmiddin Kubro's legacy.*

**Keywords:** *Najmiddin Kubro, Sufism, spirituality, perfect human, spiritual heritage, moral education.*

Bir necha sohalar bo'yicha yetuk olim shayx Najmiddin Kubro hazratlari jahon ilm-fani rivojiga o'ziga xos hissa qo'shgan allomalardan biridir. U zotning namunali hayot yo'llari hamda qoldirgan ilmiy meroslarini o'rganish bugungi kunimiz uchun ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

Olimning to'liq ismi Abul Jannob Ahmad ibn Umar ibn Muhammad ibn Abdulloh Najmiddin al-Kubro al-Xivaqiy al-Xorazmiy. Xivaq (Xiva) Xorazm qishloqlaridan biri. Ba'zi rivoyatlarda "Najmiddin Kubro" deyilgan.

U zot milodiy 1145 – 1221 yil, hijriy 538 – 618 yillarda yashab otganlari haqida ma'lumotlar bor. Xorazmning Xiva shahrida tug'ilgan.

Kunyalari "Najmiddin", "Kubro", "Abul Jannob", "Valiytarosh" kabi unvon va kunyalari bor.

"Kubro" – tahallusini olishlariga sabab, U kishi yoshligivaznidan ilmga qiziqqan, qobiliyatli inson bo'lgan. Shariat ilmlarini puxta egallab, yigitlik pallasida tengqurlarivaznidan barcha ilmlarda peshqadam bo'lib ketadilar shuning uchun uni "Tomaa al-Kubro" ("Katta voqea") deya atashgan. Ko'p ishlatilavergan bu laqab keyinchalik ixchamgina "Kubro" shaklini olgan.

“Najmiddin” – Dinning yulduzi. Yuqoridagi Kubro laqabiga bu Najmiddin kunyasi qoʻshilib Najmiddin Kubro ism darajasiga chiqqan va shu ism bilan mashxur boʻlganlar.

Bu kishining laqablari asli "Najmul Kubaro" ("Katta yulduz") boʻlgan. Soʻngra oʻzgartirilib, "Najmiddin Kubro" deyilgan.

Abul Uʻlo Al-Farziy “Najmiddin Kubro” deb laqab olganlarining sababini aytadilar: “Bu laqab avval “Najmul Kubaro, Buyuklarning yulduzi” edi keyinchalik oʻzgartirilib, "Najmiddin Kubro" deyilgan”

Ibn Imodiy Al-Hanbaliydan boshqacharoq naql keltiriladi: “Tengqurlarini ichida darsdagi mushkul va sirli narsalarni fahmlashda ilgari ketganligi uchun uni “Tommatul Kubro” “Katta voqea” deb atashadi, bu laqab koʻp ishlatilaverganivaznidan keyinchalik qisqartirilib "Kubro”ni oʻzini qoldirishgan.

“Abul Jannob” - soʻzi esa Najmiddin Kubroning kuniyasidir, mazkur soʻzning maʼnosi: "dunyovaznidan parhez qilgan taqvodorning otasi" demakdir, boshqacha qilib aytganda, shayxning taqvo va tavba posboni ekaniga ishoradir.

Jomiy hazratlari yozadilarki, Najmiddin Kubro Iskandariya shahrida muhaddis ulamolarvaznidan hadis ilmini oʻrganib qaytayotganida, yoʻlda bir kecha hazrati Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallamni tushida koʻradi va ul zotga murojaat qilib, «menga kuniyat bagʻishlang» deydi. Hazrati Paygʻambar sollallohu alayhi vasallam Najmiddinga: «Sening kuniyating Abuljannob - dunyovaznidan ijtinob, parhez etuvchi boʻladi», deb marhamat qiladilar. Aytishlaricha, Najmiddin shu bashoratvaznidan keyin tasavvufga yuz oʻgirib, oʻziga munosib piri murshid qidirishga kirishadilar.

“Valiytarosh” laqabiga kelsak, bu soʻzning maʼnosi: "valilarni tarbiyalovchi" demakdir. Zero Najmiddin Kubroning nafasлари, nazarları shunchalik oʻtkir boʻlganki, qalblarida ilhom-vajd joʻsh urgan paytda kimga nazarları tushsa, u valiylik martabasini topar ekan . .

Ilmiy safarlari: Najmiddin Kubro oʻz yurtida dastlabki ilmlarni olib boʻlgach, taxminan 16-17 yoshligida Xorazmni tark etib, bilimni oshirish maqsadida Eron, Misr, Shom va Iroq mamlakatlarida boʻlib, hadis hamda fiqh ilmi bilimdonlari suhbatida boʻladi.

Najmiddin Kubro Bagʻdod, Tabriz, Nishopur, Tus, Dizful shaharlarida oʻz davrining mashhur olimlarivaznidan fiqh, hadis va tafsir ilmlarini chuqur oʻzlashtirib, donishmand inson boʻlib yetishadi.

Abu Tohir Silafiy, Attor Abul Aʻlo Hamadoniy, Muhammad ibn Bunaymon, Abdulmunʼim ibn Furoviy va ularning tabaqasidagilarvaznidan xadis eshitganlar. Hadis ilmida tanilib, usul ilmini egallaganlar. Bu kishivaznidan Abdulaziz ibn Hilola, Xatib Doriyyo Shumax, Nosir ibn Mansur Urziy va shogirdlari Sayfiddin Boxarziy hamda boshqalar hadis rivoyat qilishgan.

Imom Sabkiy "Tobaqotush Shofiʼiyyah" asarida aytadilar: U kishi (Najmiddin Kubro) Imom, Zohid va olim kishi edi. Koʻp shaharlarni kezib koʻp hadislarni eshitib oʻzlashtirgan. Iskandariya da Abu Tohir as-Silafiyvaznidan, Hamadon da Hofiz Abul

U'lovaznidan va Naysobur da Abul Ma'oliy al-Faroviyyavaznidan hadis ilmini olgan va bir qancha hadislarni o'zlashtirgan.

Umar ibn Hojib aytadilar: "Najmiddin Kubro yurt kezganlar, hadis eshitganlar, Xorazmni vatan tutib, o'sha yerning shayxi bo'lganlar. Hadis va sunnat sohibi edilar. G'ariblarning arz-dodini tinglovchi, obro'lari ulug' bo'lib, Alloh yo'lida haqiqatni aytishda malomatchilarning malomativaznidan qo'rqmaganlar".

Usmon Turarning "Tasavvuf tarixi" kitobida Najmiddin Kubroning ilmiy safarlarini quyidagicha ifodalangan.

"Najmiddin Kubro yoshligida diniy ilmlarni egallagan. Ayniqsa, xadis ilmida tengi yo'q edi. Turli o'lkalarni kezgan. Misrda shayx Ruzbixon Vazzox Misriy bilan tanishib, unga murid bo'lgan. Qattiq riyozatlar natijasida murshidining tavajjuhiga erishib, uning qiziga uylangan. Keyinchalik Tabrizda Abu Nasr Hafzavaznidan dars olgan. Dars olish chog'ida "Sharxus sunna val masolix" asarini yozgan. Bunvaznidan keyin u Ammor Yosirga murid bo'lgan, uning tavsiyasi bilan esa Ismoil Kasriy dargohiga kirgan va u yervaznidan "xirqai tabarruk" kiygan. Yana Misrga, shayxining yoniga qaytgan Kubro, shayxi tomonivaznidan o'z vatani Xorazmga irshod vazifasi bilan jo'natiladi. Kubro Xorazmga ko'chib borib, kubraviya (zaxabiya) tariqatiga asos solgan. Qisqa vaqt ichida atrofda gilarining muhabbatini qozondi, olimlar tarbiyalab, voyaga yetkazdi. Chunonchi, Fariddidin Attorning ustozlari shayxi Najmuddin Bag'dodiy bilan "Mirsadul ibod" muallifi mashhur Najmuddin Doyani sanash mumkin. Najmiddin Kubro mug'ullar bilan bo'lgan jangda shahid bo'lgan".

Najmiddin Kubroning ustozlari hadis va tasavvuf sohasining yetuk olimlari bo'lishgan. Najmiddin Komilov o'zining "Najmiddin Kubro" asarida ilmiy safarlarini bayonida ustozlarini ham nomma – nom zikr qilgan. Jumladan shunday degan "Najmiddin Kubro ilk daf'a Misrga borib, Shayx Ruzbixon al-Vazoz Misriy (1189 yilda vafot etgan) ga murid tushadi. Bir necha yil Shayx Ruzbixon rahbarligida tariqat odobini o'rganadi, shayxning qiziga uylanadi. Shayx Ruzbixon Najmiddinni farzandiday yaxshi ko'rib, g'amxo'rlik qiladi. Ammo betoqat Najmiddin yana safarga chiqadi va Tabrizga qaytib kelib, Abumansur Haddad oldida "Sharh as-sunna" kitobi bo'yicha hadis o'rganishni davom ettiradi. Najmiddin Kubroning hayotidagi burilish shu yerda boshlanadi. Chunki u Tabrizda Bobo Faraj ismli bir «majzub» (devona) darvesh bilan uchrashib qoladi. Bobo Farajning karomatlari ta'sirida ulamolar bilan suhbatni butunlay tark etib, astoidil sulukka beriladi, botiniy olamni ravshanlashtirish uchun piri murshid qidirishga tushadi. Ammo, Abdurahmon Jomiyning maxsus ta'kidiga binoan, Najmiddin Kubro "donishmand kishi bo'lganligi va hech kimga bo'yin egmaganligi" sababli munosib piri murshid topishga qiynalardi. Bovujud U Hamadonda Shayx Ammor Yosir (1187 yilda vafot etgan) huzuriga borib, uning xizmatida bo'ladi. Ammo Yosir uni Shayx Ismoil Qasriyga tavsiya etadi. Ismoil Qasriy (1183 yilda vafot etgan) Najmiddindagi takabburlik, zoxiriy ilmlarga bino qo'yish mayllarni sindirib, ma'naviy-ma'rifiy kamolot bosqichlariga ko'tarilishiga yordam

beradi. Najmiddinda botiniy ajoyibot paydo bo'lib, valiylik alomati ko'ringach, Shayx Ismoil unga irodat xirqasi (yoki «xirqai asl») kiydirib, Xorazmga qaytib borib, u yerda tariqatni joriy etishni tavsiya qiladi.

Najmiddin Shayx Ismoil qo'livaznidan «irodat xirqasini» olgach, Misrga boradi. Shayx Ruzbexon uni yana bir marta imtihon qilib tasavvuf ilmi va tariqat odobini nozik jihatlarigacha o'zlashtirganiga qanoat hosil qilagach, endi yurtiga borib, bu ta'limotni yoyishing mumkin deb yozma hujjat – "Ijozat" xati beradi".

Najmiddin Kubro o'zlari shunday deydilar: "Tariqat ilmini Ruzbexondan, Ishqni Ibnul Usrdan, xilvat ilmini Ammordan va Xirqani Ismoil Qasriydan oldim".

1. Abu Muhammad Ruzbahon bin Abu Nasr Al-Baqliy, Al-Shiroziy, Al-Misriy (vaf.606-hijriy)

Asli Sheroz (Eron)lik bo'lgan. Misrga borib Qohira va Iskandariyada yashagan. Hatto Ruzbehon Misriy deb tanilgan. So'ngra Sherozga qaytib "Atiyq" nomli masjidida 50 yil va'z – nasihat va irshod bilan mashg'ul bo'lgan. U kishi shu 50 yil ichida "Shattohi Foris" deb laqab olgan. Ruzbehon musulmonlarning eng katta tasavvuf olimlaridan, Forslarning iftixori va Sherozning ulug'laridandir. Ruzbehon birnecha Forsiy va arabiy kitoblar muallifidir.

2. Ash-Shayx Abdulloh ibn Muhammad bin Hibatulloh bin Al-Mutohhir bin Aliy Ibn Abi Isrun Ash-Shofi'iy, Tamimiy, Musiliy, summa Dimashqiy . (492-585 - hijriy).

Muvaffaqquddiyn bin Qudoma Al-Hanbaliy: " Ibn Abi Isrun o'z asrining Shofi'iy mazhabining imomi edi" degan.

Ibn Saloh Tabaqot asarida: "Asrining ahllarini ichida eng faqihrog'I edi, fatvo va hukmlar u kishida (javobini topib) to'tardi, u kishivaznidan juda ham ko'p insonlar fiqhni o'rgandi" deydilar .

3. Shayx Ammor ibn Yosir bin Muhammad bin Ammor bin Sahob Ash-Shayboniy (v.590-hijriy)

4. Shayx Ismoil Qasriy. (v.557-hijriy)

5. Hasan ibn Ahmad Ibn Hasan Abul U'lo Al-Attor, Al-Hafiz (vaf.569-hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Hamadonda ilm o'rgangan.

6. Muhammad bin As'ad bin Husayn Abu Mahsur At-Tusiy. (vaf.571-hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Tabrizda ilm o'rgangan.

7. Muborak bin Aliy bin Husayn bin Abdulloh Abu Muhammad Al-Bag'dodiy (vaf.575-hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Makkada ilm o'rgangan.

8. Ahmad ibn Muhammad bin Ahmad bin Ibrohim Abu Tohir As-Silafiy (vaf.576-hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Iskandariyyada ilm o'rgangan.

9. Abdul Mun'im bin Abdulloh bin Muhammad Abul Mu'oliy Al-Furoviy (vaf.587 - hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Naysoburda ilm o'rgangan.

10. Xalil bin Badr bin Sobit bin Ravh Abu Sa'iyd Ar-Roroniyy (vaf.596-hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Isfahonda ilm o'rgangan.

11. Ahmad bin Muhammad bin Muhammad bin Abdulloh Abul Makorim Al-Labbon (vaf.597-hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Isfahonda ilm o'rgangan.

12. Muhammad bin Abi Zayd bin Hamd bin Abi Nasr Abu Abdulloh Al-Karroniy. (vaf.597-hijriy) Najmiddin Kubro bu ustozivaznidan Isfahonda ilm o'rgangan.

Xulosa qilib aytganda, shayx Najmiddin Kubro hazratlarining hayot yo'li, ilm tahsil qilish borasidagi sa'y-harakatlari hamda ustozlari bilan munosabatlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bu mavzuni o'rganish har bir inson xulqining go'zal tarzda barpo bo'lishiga, ilm o'rganish borasida katta muvaffaqiyatlarga erishishiga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abu Abdullox Shamsiddin Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon Zahabiy. Siyaru a'lamin nubalo. Mashhur daholar siyrati. – Toshkent: HILOL nashr, 2020. – B. 311.
2. <https://ahlalsuffa.com/index.php/asshs/article/view/4/2>
3. Najmiddin Komilov. Najmiddin Kubro. Risola. – Toshkent: Fan, 1997. 18-b.
4. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999. 121-b.
5. Чалабий Л. У.а. 475-480-б; Из, М. ў.а. 148-149-б.
6. Кубро Н. Тасаввуфий ҳаёт. тарж. М. Кара, 11-17-б.